

**TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA
MARKAZIY BANKNING ROLI: HOLAT, MUAMMOLAR VA
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

Xasanov Alisher Bahrom og'li

magistrant, «Bank ishi va auditi» mutaxassisligi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Ilmiy rahbar: PhD, dots. **I. Foziljonov**

***Annotatsiya.** Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankinging tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimi — pul-kredit siyosati, prudensial nazorat, makroprudensial siyosat vositalari va iqtisodiy normativlar — kompleks ilmiy tahlil qilingan. Bank tizimining 2017–2025-yillar oralig'idagi institutsional rivojlanishi miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholangan. Kapital yetarliligi va likvidlik normativlari dinamikasi o'rganilgan, Bazel III standartlarini milliy amaliyotga moslashtirishning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan. Asia Alliance Bank misolida komplayans-nazorat tizimining istiqbolli modeli taklif etilgan.*

***Kalit so'zlar:** markaziy bank, tijorat banki, prudensial nazorat, makroprudensial siyosat, iqtisodiy normativlar, kapital yetarliligi, likvidlik koeffitsienti, CAMELS, Bazel III standartlari, komplayans-nazorat, inflyatsion targetlash.*

Abstract. This thesis provides a comprehensive scientific analysis of the Central Bank of Uzbekistan's system for regulating commercial bank activities, including monetary policy, prudential supervision, macroprudential policy instruments and economic normatives. The institutional development of the banking system over 2017–2025 is assessed through quantitative indicators. Capital adequacy and liquidity ratios are examined, and the scientific foundations

for adapting Basel III standards to national practice are developed. A prospective compliance monitoring model is proposed using Asia Alliance Bank as a case study.

Keywords: *central bank, commercial bank, prudential supervision, macroprudential policy, economic normatives, capital adequacy, liquidity ratio, CAMELS, Basel III standards, compliance monitoring, inflation targeting.*

1. Kirish

Zamonaviy iqtisodiy nazariyada Markaziy bank faqat pul emissiyasini ta'minlovchi organ sifatida emas, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi, bank tizimi ustidan makroprudensial va mikroprudensial nazoratni amalga oshiruvchi strategik institut sifatida qaralmoqda. 2008-yildagi global moliyaviy inqiroz bank nazoratining yetarli darajada ishlamaganligi oqibatida yirik banklar o'z majburiyatlarini bajara olmadi, kreditlash izdan chiqdi va iqtisodiy inqiroz chuqurlashdi. Mazkur tajriba Xalqaro hisob-kitoblar bankining ilmiy xulosalarida ham tasdiqlangan: agar markaziy banklar kapital yetarliligi, likvidlik va risklarni cheklash bo'yicha qat'iy talablarni ilgariroq joriy etganida, tizimli yo'qotishlar miqyosi ancha kam bo'lgan bo'lardi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar — pul-kredit siyosatini liberallashtirish, inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish, valyuta bozorini erkinlashtirish, bank tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan strategik dasturlar — Markaziy bankning tartibga solish funksiyasini sezilarli darajada kengaytirdi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida yangi turdagi operatsion va kiberxavfsizlik risklari, shuningdek fintech institutlarning bozorga faol kirishi bank



nazoratining an'anaviy shakllari bilan birga zamonaviy mexanizmlarni ham qo'llash zarurligini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur tezisning tadqiqot maqsadi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati, bank nazorati va prudensial tartibga solish instrumentlarining tijorat banklari faoliyatiga ta'sirini kompleks tahlil etish, mavjud muammolarni aniqlash hamda tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

2. Markaziy bankning bank tizimini tartibga solishdagi funksional roli

Ilmiy adabiyotlarda markaziy bank tushunchasi turli nazariy maktablar kontekstida talqin etilgan. Klassik yondashuvlarda u pul emissiyasi va bank tizimi likvidligini ta'minlovchi muassasa sifatida ko'rilgan bo'lsa, zamonaviy institutsional yondashuvlarda makroprudensial siyosat yurituvchi va tizimli risklarni boshqaruvchi asosiy regulyator sifatida izohlana boshlangan. Monetarizm asoschilaridan Milton Fridman ta'kidlaganidek, inflyatsiya doimo monetar hodisa bo'lib, pul massasining nazoratsiz kengayishi narxlar umumiy darajasini oshiradi, shu sababli markaziy banklar pul taklifini qat'iy nazorat qilish orqali narxlar barqarorligini ta'minlashi zarur. Zamonaviy yondashuvlarda esa bu jarayon inflyatsion targetlash modeli orqali amalga oshiriladi. Xalqaro valyuta fondining tahlillariga ko'ra, 2020–2024-yillarda inflyatsion targetlashni qo'llagan davlatlarda o'rtacha inflyatsiya an'anaviy monetar rejimlarga nisbatan pastroq va barqarorroq shakllangan.

G.G.Fetisovning yondashuviga ko'ra, «bank nazorati davlat tomonidan bank tizimiga ta'sir ko'rsatishning kompleks shakli bo'lib, kredit institutlarining tashkil etilishi, faoliyat yuritishi hamda ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga



qaratilgan chora-tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi». O.I.Lavrushin esa bank nazorati tizimi uchta ustuvor yo'nalishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan: moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, bank tizimi samaradorligini oshirish hamda omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish.

O'zbekiston Respublikasining «Markaziy bank to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasiga muvofiq, Markaziy bankning bosh maqsadlari sifatida ichki bozorda narxlar barqarorligi, bank tizimi mustahkamligi va to'lov tizimlarining uzluksiz ishlashi belgilangan. Qonunning 12-moddasida pul-kredit va valyuta siyosatini yuritish, inflyatsiya prognozini shakllantirish, banklar va moliyaviy tashkilotlarni litsenziyalash va nazorat qilish, xalqaro valyuta zaxiralarini boshqarish, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi monitoring kabi keng qamrovli funksiyalar belgilangan. Bu huquqiy asos Markaziy bankning faqat pul-kredit siyosati organi emas, balki butun moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlovchi asosiy regulyator ekanligini mustahkamlaydi.

Makroprudensial siyosat nazariyasi nuqtai nazaridan tizimli xatarlar ikki asosiy guruhga ajratiladi. Birinchisi — davriy tizimli xatarlar bo'lib, ular iqtisodiy faollikning ortishi va kreditlash hajmining tez kengayishi natijasida bosqichma-bosqich to'planadi. 2023–2025-yillarda O'zbekistonda kredit portfeli o'sish sur'atlarining yuqori darajada saqlanayotganligi aynan mana shu xatar turiga e'tiborni kuchaytirmoqda. Ikkinchisi — tarkibiy tizimli xatarlar bo'lib, ular moliyaviy institutlar o'rtasidagi bevosita shartnomaviy aloqalar va bir xil aktivlarga nisbatan umumiy tavakkalchiliklar orqali shakllanadi. Ayniqsa, banklararo operatsiyalar, raqamli moliyaviy xizmatlar va integratsiyalashgan to'lov



tizimlarining rivojlanishi ushbu xatarlarning uzatilish tezligini oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

3. Empirik tahlil: bank tizimi ko'rsatkichlari va tartibga solish amaliyoti

3.1. Bank tizimining institutsional rivojlanishi (2017–2025)

O'zbekiston bank tizimi 1991–2025-yillar oralig'ida uch bosqichli evolyutsion rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Birinchi bosqich (1991–2000-yillar) institutsional shakllanish davri bo'lib, bu davrda sobiq markazlashgan monobank modelidan ikki pog'onali bank tizimiga o'tish amalga oshirildi, asosiy huquqiy asoslar yaratildi, biroq moliyaviy vositachilik darajasi past bo'lib qoldi. Ikkinchi bosqich (2001–2016-yillar) barqarorlashuv va modernizatsiya davri bo'lib, makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlangani, bank aktivlari va kreditlash hajmi kengayishi kuzatildi. Uchinchi bosqich (2017–2025-yillar) transformatsiya va raqamlashtirish davri bo'lib, iqtisodiy islohotlar, xalqaro standartlarga moslashish va raqamli bank xizmatlarining ommaviylashuvi bank tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi.

1-jadval. O'zbekiston bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2017–2025)

Ko'rsatkich	017	019	021	023	025
Kredit tashkilotlari soni	03	21	60	99	29

Tijorat banklari soni	7	9	2	2	6
Bank aktivlari (trln so'm)	4,1	14,4	66,1	56,7	69,3
Aktivlar/YAIM (%)	3,6	6,1	4,6	6,2	2,8
Kapital (trln so'm)	,0	6,7	8,4	9,6	14,8
Kredit qo'yilmalari (mlrd so'm)	2,6	64,7	77,0	90,0	33,1
Kreditlar/YAIM (%)	4,8	7,7	3,8	2,4	6,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni, 2025. www.cbu.uz.

Jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'rganilayotgan davrda bank tizimida ikki xil tendensiya bir vaqtda kuzatildi. Bir tomondan, bank aktivlarining YAIMga nisbati 23,6 foizdan 52,8 foizga oshishi bank sektorining iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik roli ikki baravardan ko'proq kuchayganidan dalolat beradi. Kredit qo'yilmalarining esa o'n baravar oshishi iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishda bank tizimining strategik o'rnini mustahkamlayotganini tasdiqlaydi. Boshqa tomondan, kredit o'sish sur'atining YAIMga nisbatan yuqoriroq bo'lishi kredit risklari konsentratsiyasining oshishi xavfini keltirib

chiqaradi. Shu sababli bank nazorati tizimini kredit portfeli sifati va tizimli xatarlarni monitoring qilish nuqtai nazaridan kuchaytirish zaruriyati tobora ortib bormoqda.

3.2. Kapital yetarliligi va likvidlik normativlarining dinamikasi

Tijorat banklari faoliyatini prudensial asosda boshqarishda Markaziy bank tomonidan belgilanadigan iqtisodiy normativlar — kapital yetarliligi, likvidlik va risklar konsentratsiyasi ko'rsatkichlari — asosiy tartibga solish instrumentlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunining 38-moddasiga muvofiq, barcha banklar va bank guruhlari Markaziy bank tomonidan belgilangan prudensial normativlarga qat'iy rioya etishi shart etib belgilangan.

2-jadval. Bank tizimi bo'yicha kapital yetarliligi ko'rsatkichlari (2020–2025), mlrd so'm

Sana	I darajali kapital	II darajali kapital	Jami regulyativ kapital	KY ko'rsatkichi (%)
01.01.2020	43 659,2	8 807,5	52 466,8	23,5
01.01.2021	48 140,5	10 021,5	58 162,0	18,4
01.01.2022	58 624,2	11 566,8	70 191,1	17,5



01.01.2 023	67 793,5	15 619,6	83 413,0	17,8
01.01.2 024	84 910,8	21 003,7	105 914,5	17,5
01.01.2 025	102 617,7	22 175,4	124 793,2	17,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik statistik ma'lumotlari, 2025.

Kapital yetarliligi ko'rsatkichining 23,5 foizdan 17,4 foizga pasayishi dastlab salbiy ko'rsatkich sifatida tuyulishi mumkin, biroq ilmiy tahlil boshqacha xulosaga olib keladi. Bu jarayon bank tizimining raqamli transformatsiya va iqtisodiy modernizatsiya sharoitida real sektorni faol moliyalashtirishga yo'nalganini aks ettiradi. Ya'ni, riskka tortilgan aktivlarning kapitalga nisbatan tezroq o'sishi bank tizimining passiv rezerv to'plash strategiyasidan faol iqtisodiyot moliyachiligiga o'tganining ko'rsatkichi hisoblanadi. Biroq kapital yetarliligi ko'rsatkichi barcha yillarda belgilangan minimal talabdan yuqori — 17–18 foiz atrofida — saqlanib kelayotganligi bank tizimining prudensial barqarorligini ta'minlayotganidan dalolat beradi.

3-jadval. Bank tizimi likvidlik ko'rsatkichlari dinamikasi (2020–2025)

Sana	Yuqori likvid aktivlar (mlrd so'm)	LC R (%)	NS FR (%)	Lahzali likv. (%)
------	--	-------------	--------------	----------------------



01.01. 2020	30 873,8	208 ,5	112 ,8	47,8
01.01. 2021	50 475,7	224 ,5	109 ,9	67,4
01.01. 2022	75 992,2	189 ,6	115 ,4	99,3
01.01. 2023	104 472,9	211 ,6	115 ,6	110,1
01.01. 2024	96 909,5	164 ,8	111 ,8	87,4
01.01. 2025	133 228,9	193 ,8	115 ,3	112,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik statistik ma'lumotlari, 2025.

Yuqori likvid aktivlarning 30 873,8 mlrd so'mdan 133 228,9 mlrd so'mga — ya'ni 4,3 barobar — oshishi bank tizimida qisqa muddatli to'lov qobiliyati sezilarli darajada mustahkamlanganini ko'rsatadi. Likvidlilikni qoplash koeffitsienti (LCR) barcha davrlarda minimal talab (100 foiz)dan ancha yuqori — 164–225 foiz chegarasida — saqlanib kelgan bo'lsa, sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti (NSFR) 109–116 foiz oralig'ida barqaror holda ushlab turilgan. Lahzali likvidlilik koeffitsientining esa 2020-yildagi 47,8 foizdan 2025-yilda 112,3 foizga oshgani bank tizimining qisqa muddatli majburiyatlarga nisbatan moliyaviy bardoshlilik keskin ortganini ifodalaydi.



3.3. Xalqaro Bazel III standartlarini milliy amaliyotga moslashtirishning tahlili

2010-yilda Bazel nazorat qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Bazel III standartlari 2008–2009-yillardagi global moliyaviy inqiroz saboqlari asosida shakllangan bo'lib, bank kapitalining sifatini oshirish, likvidlikni mustahkamlash va makroprudensial siyosat elementlarini tatbiq etishni o'z ichiga oladi. Ushbu standartlar doirasida I darajali kapital (Tier 1) ning minimal talabi 2013-yildagi 4,5 foizdan 2015-yilga kelib 6,0 foizga oshirilgan. Konservatsion kapital buferi (Capital Conservation Buffer) esa 2016–2019-yillar davomida bosqichma-bosqich 2,5 foizga yetkazilgan. Shu bilan birga, qisqa muddatli likvidlikni ifodalovchi LCR va uzoq muddatli likvidlikni ifodalovchi NSFR ko'rsatkichlari joriy etildi.

O'zbekiston bank tizimida kapital yetarliligi ko'rsatkichi (17,4 foiz) Bazel III ning 8 foizlik minimal talabidan ancha yuqori saqlanib qolayotgani tartibga solish siyosatining konservativ yondashuvga asoslanganini ko'rsatadi. LCR (193,8 foiz) va NSFR (115,3 foiz) ko'rsatkichlari ham xalqaro 100 foizlik minimal talabdan sezilarli darajada yuqori. Biroq milliy standartlar Rossiya Federatsiyasi tajribasiga o'xshab ayrim jihatlarida Bazel III talablaridan farqlanmoqda: kontrsiklik kapital buferi va konservatsion kapital buferini to'liq joriy etish, kapital hisoblashda ichki reyting modellarini (IRB-yondashuv) va kredit risklarining kengaytirilgan standartini qo'llash masalalarida qo'shimcha islohotlar talab etiladi.

4. Tartibga solish tizimida aniqlangan tizimli muammolar

Olib borilgan tadqiqot asosida O'zbekiston Markaziy bankining tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimida quyidagi tizimli muammolar aniqlanadi:



– Raqamli muhitda tartibga solish bo'shliqlarining kengayishi. Masofaviy bank xizmatlari, avtomatlashtirilgan kredit qarorlari va fintech institutlar bilan integratsiyaning tezlashuvi an'anaviy inspeksion va masofaviy nazorat shakllari yetarli bo'lmayotgan yangi operatsion va kiberxavfsizlik risklarini yuzaga keltirmoqda. Bozor ishtirokchilarining tartibga solinmagan segmentlarga o'tish ehtimoli — tartibga solish arbitraji — ham muhim muammo hisoblanadi.

– Bazel III standartlarini to'liq joriy etishdagi institutsional kamchiliklar. Kontrsiklik kapital buferi va konservatsion kapital buferining qisman joriy etilganligi, ichki reyting modellari (IRB-yondashuv) va kengaytirilgan standartizatsiyalashtirilgan yondashuv (SA-CR) bo'yicha kapital talablarining milliy standartlarda to'liq aks etmasligi tizimli muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

– Davlat ulushi yuqori banklarda korporativ boshqaruv va nazorat mustaqilligining yetarli emasligi. Kredit qarorlarida davlat dasturlari talablarining tijorat banki tamoyillaridan ustun kelishi holatlari kuzatiladi. Bu esa kredit portfeli sifatiga va banklarning mustaqil moliyaviy siyosat yuritish imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

– Komplayans-nazorat tizimining institutsional jihatdan to'liq shakllanmaganligi. Tijorat banklarida AML/CFT (pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash) jarayonlarining avtomatlashtirilmaganligi, komplayans-ofitserlar malakasining yetarli emasligi va komplayans bo'linmasining funksional mustaqilligining cheklanganligi amaliyotda jiddiy muammo bo'lib qolmoqda.



– Kredit portfeli sifatini boshqarish tizimida strukturaviy zaifliklar. Ipoteka va chakana kreditlash segmentlarida qarz yuki ko'rsatkichlarining (DSTI) daromadlarga nisbatan oshib borishi, kredit o'sishi sur'atining YAIM o'sishidan yuqori bo'lishi va muddati o'tgan kreditlar ulushining oshish xavfi prudensial nazoratni kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda.

5. Ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar

Aniqlangan muammolar tahlili asosida O'zbekiston Markaziy banking tijorat banklari faoliyatini tartibga solish samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi:

1. Raqamli nazorat platformasini joriy etish. Real vaqt rejimida banklar operatsiyalarini monitoring qiluvchi, sun'iy intellekt elementlarini qo'llagan holda muammolarni erta bosqichda avtomatik aniqlash imkonini beruvchi yagona raqamli nazorat tizimini shakllantirish tavsiya etiladi. Ushbu platforma masofaviy nazoratning samaradorligini oshiradi va inspeksiya jarayonini ma'lumotlar asosida yo'naltirish imkonini beradi. Natijada bank tizimini real vaqtda monitoring qilish va tizimli xatarlarni dastlabki bosqichdayoq aniqlash mumkin bo'ladi.

2. Bazel III standartlarini to'liq joriy etish yo'l xaritasini ishlab chiqish. Kontrsiklik kapital buferini (0–2,5 foiz) va konservatsion kapital buferini (2,5 foiz) milliy prudensial normativlarga to'liq kiritish, kredit risklari bo'yicha ichki reyting modellarini (IRB-yondashuv) yirik banklarda sertifikatsiya qilish, shuningdek oshkor etish standartlarini (Pillar 3) kuchaytirish kerak. Bundan tashqari, O'zbekiston bank tizimining xususiyatlarini inobatga olgan holda Bazel III final islohotlari («Bazel IV») talablarini bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasini ishlab chiqish zarur.



3. Komplyans-nazorat tizimini institutsionalizatsiya qilish. Asia Alliance Bank misolida tadqiq etilgan komplyans-nazorat modelidan kelib chiqqan holda, barcha tijorat banklarida komplyans-nazoratni funksional jihatdan mustaqil ichki bo'linma sifatida shakllantirish qonunchilik darajasida majburiy qilib belgilanishi zarur. Komplyans-ofitserlarning xalqaro sertifikatlashi (CAMS, ICA), AML/CFT jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan dasturiy ta'minotni joriy etish, shuningdek shubhali operatsiyalarni aniqlash uchun sun'iy intellekt asosidagi tizimlardan foydalanish amaliyotini kengaytirish tavsiya etiladi.

4. Makroprudensial kommunikatsiya siyosatini kuchaytirish. Markaziy bankning moliyaviy barqarorlik bo'yicha choraklik hisobotlarini xalqaro standartlar darajasida takomillashtirish, tizimli xatarlar darajasini ifodalovchi ommaviy monitoringi indeksini e'lon qilish va bank tizimi ishtirokchilarining kutilmalarini boshqarish uchun inflyatsion targetlash ramkasida strategik kommunikatsiya mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Kutilmalar kanali orqali Markaziy bank tomonidan banklarning risklarni baholash va boshqarish yondashuviga oldindan ta'sir ko'rsatish mumkin.

5. Davlat ulushi yuqori banklarda korporativ boshqaruvni mustaqillashtirish. Kuzatuv kengashlari tarkibida mustaqil direktorlar minimal ulushini (kamida 50 foiz) qonunchilik darajasida belgilash, kredit va investitsiya qarorlarida ma'muriy bosimdan xoli mexanizmlarni shakllantirish, shuningdek davlat banklarini tijorat banklari bilan teng raqobat sharoitlariga o'tkazishni jadallashtirish tavsiya etiladi.

6. Stress-test metodologiyasini kengaytirish. Butun bank tizimi darajasida makrostress-testlarni yiliga ikki martadan kam bo'lmagan davriylikda



o'tkazish, ssenariy tahliliga iqlim o'zgarishi, geosiyosiy risklar va kiberxavfsizlik omillarini kiritish hamda natijalarni jamoatchilik uchun ommaviy hisobot shaklida e'lon qilish zarur. Bu esa moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda shaffoflik va proaktiv yondashuvni kuchaytiradi.

6. Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi asosiy ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchiidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari faoliyatini tartibga solishda 2017–2025-yillar davomida muhim sifat o'zgarishlarini amalga oshirdi. Inflyatsion targetlash rejimiga o'tish, xalqaro Bazel standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish, bank kapitalini mustahkamlash va raqamli monitoring imkoniyatlarini kengaytirish Markaziy bankning tartibga solish funksiyasini sezilarli darajada oshirdi. Bank aktivlarining YAIMga nisbati 23,6 foizdan 52,8 foizga ko'tarilgani bank sektorining milliy iqtisodiyotda moliyaviy vositachi sifatidagi rolini yanada mustahkamlayotganini tasdiqlaydi.

Ikkinchiidan, kapital yetarliligi ko'rsatkichining 23,5 foizdan 17,4 foizga pasayishi bank tizimining iqtisodiyotni faol moliyalashtirishga yo'nalganini aks ettiradi. Bu ko'rsatkich barcha davrlarda minimal prudensial talabdan yuqori saqlanib kelganligi esa bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlayapti. Likvidlik ko'rsatkichlari — LCR (193,8 foiz), NSFR (115,3 foiz) va lahzali likvidlilik (112,3 foiz) — barcha yillarda xalqaro minimal talablardan ancha yuqori bo'lganligi bank tizimida qisqa va uzoq muddatli to'lov qobiliyatining yetarli darajada mustahkamlanganligini ko'rsatadi.



Uchinchidan, bank tizimida tartibga solish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir: raqamli nazorat platformasini joriy etish orqali real vaqtda monitoring salohiyatini oshirish; Bazel III standartlarini to'liq joriy etish, xususan kontrsiklik kapital buferi va ichki reyting modellarini tatbiq etish; komplyans-nazorat tizimini institutsional jihatdan mustaqil va samarali bo'linma sifatida shakllantirish; davlat ulushi yuqori banklarda korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash va makroprudensial kommunikatsiya siyosatini kuchaytirish.

To'rtinchidan, taklif etilgan ilmiy takliflarni izchil amaliyotga tatbiq etish O'zbekiston bank tizimining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish, tizimli moliyaviy xatarlarni dastlabki bosqichda aniqlash va barqarorlik potensialini yanada mustahkamlash bilan birga, «O'zbekiston — 2030» strategiyasida belgilangan iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishga munosib hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

7. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni. 2019-yil 11-noyabr. www.lex.uz.
8. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 2019-yil 5-noyabr. www.lex.uz.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2020–2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF-5992-sonli Farmoni. 2020-yil 12-may.
10. «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-sonli Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.



11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining «Tijorat banklarida CAMELS reyting tizimi asosida o'tkaziladigan kompleks inspeksiya qo'yiladigan minimal talablar» to'g'risidagi 3/15-sonli qarori. 2018-yil 27-yanvar.
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining «Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida»gi 2709-sonli Nizomi. 2015-yil 13-avgust.
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining «Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risida»gi 3252-sonli Nizomi. 2020-yil 30-iyun.
14. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit, banklar: darslik. – T.: Moliya, 2020.
15. Mullajonov F.M. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi. – T.: Iqtisodiyot, 2019.
16. Toymukhamedov I. Formation and Development of Banking Ecosystems in Uzbekistan. – T.: TDIU nashriyoti, 2023.
17. Fetisov G.G. Bankovskaya sistema Rossii: problemy i resheniya. – M.: Finansi i statistika, 2014.
18. Lavrushin O.I. Bankovskoye delo. – 12-ye izd., ster. – M.: KNORUS, 2016.
19. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems. – Basel: BIS, 2017.
20. International Monetary Fund. Annual Report on Exchange Arrangements and Exchange Restrictions. – Washington, D.C.: IMF, 2024.

